

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**ANDIJON IQTISODIYOT VA QURILISH INSTITUTINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA**

Mamlakatimizda oliy ta'larning talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarida o'qitishni hududlarda tashkil etish, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish, oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, talabalarni o'qishga qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli va pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy usullarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu munosabat bilan, yoshlarning ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida ta'lim olishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratish, hududda iqtisodiyot va qurilish sohalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash salmog'ini yanada kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi hamda Andijon viloyati hokimligining Andijon shahrida Andijon iqtisodiyot va qurilish institutini (keyingi o'rnlarda — Institut) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

hududning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini hisobga olgan holda iqtisodiyot va qurilish sohasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

xorijiy yetakchi va nufuzli oliy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribasini tatbiq etish asosida malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish, o'quv va ilmiy-uslubiy ta'minotni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish;

o'quv jarayonida nazariy tayyorgarlikning amaliyot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash maqsadida iqtisodiyot va qurilish sohasidagi tashkilotlar bilan birgalikda talabalar amaliyotini tegishli soha tashkilotlarida tashkil etish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash bo'yicha maqsadli hamkorlikni yo'lga qo'yish;

amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini ro'yobga chiqarish uchun zamonaviy o'quv va ilmiy-laboratoriya bazasini shakllantirish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlash hamda o'quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

iqtisodiyot va qurilish sohasini rivojlantirishning ilmiy-metodik vazifalarini hal etish, xorijiy ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish va iqtidorli talaba-yoshlarning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlash;

yoshlarni milliy, vatanparvarlik va fidoiylik g'oyalariga sadoqat ruhida, ma'naviy boy, har tomonlama kamol topgan, mustaqil dunyoqarash va fikrlesh xususiyatlariiga ega bo'lgan shaxs etib tarbiyalash;

xorijiy yetakchi oliy ta'lim muassasalarining malakali mutaxassislarini keng jalb etish orqali respublika uchun istiqbolli bo'lgan yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish hamda xalqaro loyihalarni amalga oshirish.

3. Belgilansinki:

Institut yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

Institut O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida faoliyat yuritadi;

Institutda ta'lim faoliyati 2020/2021 o'quv yilidan boshlanadi;

2020/2021 o'quv yili uchun Institutga kunduzgi ta'lif shakli bo'yicha qabul parametrlari O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi qaroriga asosan belgilanadi;

2021/2022 o'quv yilidan boshlab Institutga qabul parametrlari belgilangan tartibda har yili tasdiqlanadigan respublika oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlaridan kelib chiqgan holda belgilanadi.

#### 4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi ikki oy muddatda:

Institut tuzilmasi oliy ta'lif muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq tasdiqlanishini ta'minlasin;

Institut ustavini belgilangan tartibda tasdiqlasin va uni davlat ro'yxatidan o'tkazish choralarini ko'rsin;

Institutni tanlov asosida, shu jumladan respublika oliy ta'lif muassasalarida faoliyat yuritayotgan amaliy tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlasin;

Institutda o'quv-metodik jarayonning tashkil etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

belgilangan tartibda Institutning shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi tasdiqlanishini va ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin;

Institut axborot-resurs markazini qo'shimcha o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

5. Respublika oliy ta'lif tizimidagi mavqeyi, ilmiy salohiyati, uzoq yillar davomida shakllangan an'analarini inobatga olgan holda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Toshkent arxitektura-qurilish institutiga quyidagi yo'nalishlarda Institutga ko'mak berib borish vazifasi yuklansin:

salohiyatli kadrlarni jalg etgan holda ta'lif va ilmiy faoliyatni sifatli tashkil etish;

ta'lif, tarbiya, ilmiy va uslubiy jarayonlarni samarali boshqarish;

ta'lif jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy materiallar va axborot resurslari bilan ta'minlash;

professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va iqtidorli yoshlar seleksiyasini amalga oshirish;

ilmiy-tadqiqot ishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish va ilmiy maktablarni rivojlantirish.

6. Andijon viloyati hokimligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining Andijon viloyati, Andijon shahar, Navoiy shoh ko'chasi, 15a-uy manzilida joylashgan Andijon xizmat ko'rsatish va servis texnikumi bino va inshootlarini Institutga operativ boshqarish huquqi asosida berish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

#### 7. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

(7-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

#### 8. Belgilab qo'yilsinki:

a) mazkur qarorni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish 2020-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini

taqsimlovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2021-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi;

b) Institutning boshlang'ich faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida:

tashkil etilgan kundan boshlab zarur saqlash xarajatlari, jumladan, ma'muriy boshqaruvi, texnik va o'quv-yordamchi xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi;

Institutga ajratilgan bino va inshootlarni joriy ta'mirlash va jihozlash (mebel, kompyuter texnikasi, o'quv adabiyotlari va boshqa moddiy-texnika vositalarini xarid qilish) ishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligining Oliy ta'lism muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga qoplanadi.

9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi tomonidan taqdim etilgan asoslangan hisob-kitoblarga binoan 2022-yilga va kelgusi yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirishda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjalriga muvofiq Institutning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash hamda jihozlash loyihalari ushbu dasturlarga belgilangan tartibda kiritilishini nazarda tutsinlar.

Bunda, Institutda talabalar soni oshishini inobatga olib, 1200 o'rinali o'quv binosi va 400 o'rinali talabalar turar joyini qurish loyihalari nazarda tutilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda Institutni salohiyatli professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash maqsadida yetakchi oliy ta'lism muassasalarida tegishli sohalar bo'yicha 2021/2022 o'quv yilidan boshlab magistraturada va 2022-yildan boshlab tayanch doktoranturada kadrlarni maqsadli tayyorlash choralarini ko'rsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda respublikadagi yetakchi oliy ta'lism muassasalari tomonidan ularning yuqori malakali professor-o'qituvchilarini jalg qilgan holda Institutda onlayn ma'ruza o'tkazish hamda masofaviy ta'lism texnologiyalarini joriy etish uchun ikki oy muddatda belgilangan tartibda telekommunikatsiya jihozlarini va infratuzilma bilan ta'minlash, shuningdek, Institutni yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i hamda elektron ta'lism milliy tarmog'iga ulash choralarini ko'rsin.

12. Andijon viloyati hokimligi Institut faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida jalg etiladigan malakali professor-o'qituvchilarini xizmat uylari bilan ta'minlasin.

13. Institutga 2 ta, shu jumladan 1 ta xizmat va 1 ta navbatchi yengil avtovoz vositalarini saqlash uchun limit ajratilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjalarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari B.A. Musayev, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lism vaziri I.U. Madjidov hamda Andijon viloyati hokimi Sh.K. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

### **O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 26-avgust,  
516-son

(Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.08.2020-y., 09/20/516/1225-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)